

YANGI O‘ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSIY STRATEGIK QARASHLARI: INTEGRATSIYADAN GLOBAL HAMKORLIKKACHA

Yulduz Islomova Ilxom qizi

TDSHU “Sharq mamlakatlari siyosati va xalqaro munosabatlar”

kafedrasi magistranti

yulduzislomova8993@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy strategiyasi va maqsad, vazifalari, shu bilan birga dunyo hamjamiyatida oshib borayotgan nufuzini asoslab beradi. Shuningdek, maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashqi siyosiy yondashuvlari, tashqi siyosiy strategiya va uning huquqiy asoslarini ochib beradi. O‘z navbatida, maqolada O‘zbekistonning olib borayotgan ko‘p vektorli hamkorlik va diplomatiyasi, ochiqlik va oshkoralikka asoslangan yangi strategik yo‘nalishlari xalqaro maydonda o‘z o‘rnini topayotgan va rivojlangan davlatga aylanish yo‘lidagi sa‘y-harakatlarni ifodalaydi.

***Kalit so‘zlar:** ko‘p vektorli(multivektor), integratsiyalashgan, gender tenglik, fundamental, “yo‘l xaritasi”, konstruktiv, pragmatik.*

FOREIGN POLITICAL STRATEGIC VIEWS OF NEW UZBEKISTAN: FROM INTEGRATION TO GLOBAL COOPERATION

Yulduz Islomova Ilxom qizi

The 1st year student of Master’s degree

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

yulduzislomova8993@gmail.com

ABSTRACT

This article explains the foreign policy strategy, goals and objectives of the Republic of Uzbekistan, and its increasing influence in the world community. Also, the article reveals the foreign policy approaches of the President of the Republic of Uzbekistan, the foreign policy strategy, and its legal basis. In turn, in the article, Uzbekistan's new strategic directions based on multi-vector cooperation diplomacy openness, and transparency represent its actions on finding its place in the international arena and becoming a leading country.

***Key words:** multi-vector, integrated, “gender equality”, fundamental, “road map”, constructive, pragmatic.*

ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: ОТ ИНТЕГРАЦИИ К ГЛОБАЛЬНОМУ СОТРУДНИЧЕСТВУ

Юлдуз Исломова Ильхом кизи

магистрант Ташкентский государственный

университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

yulduzisloмова8993@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрываются внешнеполитическая стратегия, цели и задачи Республики Узбекистан, а также ее возрастающее влияние в мировом сообществе. Также в статье раскрываются внешнеполитические подходы Президента Республики Узбекистан, внешнеполитическая стратегия и ее правовая основа. В свою очередь, в статье новые стратегические направления Узбекистана, основанные на многонаправленном сотрудничестве и дипломатической политике, открытости и прозрачности, отражают его действия по поиску своего места на международной арене и становлению ведущей страны.

***Ключевые слова:** многовекторный, интегрированный, «гендерное равенство», фундаментальный, «дорожная карта», конструктивный, прагматический.*

Metodlar: Ushbu maqola kontent va tizimli tahlildan foydalanildi.

KIRISH (INTRODUCTION)

O'zbekiston so'nggi yillarda keng ko'lamli va izchil o'zgarishlar amalga oshirishda samarali harakatlar qilmoqda, zero O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro hamjamiyatda mamlakatimiz iqtisodiyotining liberallashtirilishi, qo'shni davlatlar bilan bo'lgan o'zaro ishonchning yanada mustahkamlanishi, o'z navbatida, Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror taraqqiyot kafolati bo'lgan Afg'oniston iqtisodiy hayotida faol integratsiyalashuvini ta'minlashdagi amaliy qadamlarni tashlashi, dunyo miqyosida O'zbekistonning nufuzi oshishiga sabab bo'layotgani bejiz emas. O'zbekiston tashqi siyosiy strategiyasida asosiy boshqichlardan biri albatta, uning asosiy tamoyillari bilan bog'lanadi, chunki Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan ayniqsa Yangi O'zbekiston tashqi siyosati,

iqtisodiy hamkorlik, transport-logistika yo‘nalishlari va xavfsizlik masalalarida mintaqaviy integratsiyani rivojlantirishga qaratilganligi bilan ifodalaniladi. Shu bilan birga suv resurslari va ekologik masalalar Markaziy Osiyodagi ahamiyatga molik muhim muammolar hisoblanadi. Jumladan, O‘zbekistonning yaqin qo‘shni davlatlar bilan aloqalarning yanada mustahkamlanishida, shuningdek Afg‘oniston bilan barqarorlikni qo‘llab quvvatlashdagi roli, suv va energitika sohasidagi olib borayotgan ishlari hozirgi zamonaviy tartibotda o‘z tashqi siyosiy strategiyasining rivojlanish bosqichida ekanligining yaqqol dalilidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. (DISCUSSION AND RESULTS)

Bugungi kunda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va boshqa xalqaro inson huquqlari tuzilmalar minbarlaridan, O‘zbekistonda inson huquqlari va ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta‘minlash, majburiy mehnatga chek qo‘yish hamda ochiq siyosat yuritish bo‘yicha erishilayotgan natijalarning haqli e‘tirof etilayotgani, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar va xalqaro standartlarga mos kelish uchun ko‘rsatilayotgan natijalardir. O‘zbekistonning yangi tashqi siyosiy strategiyasi, xalqaro va mintaqaviy geosiyosiy sharoitlar o‘zgarishiga moslashishga qaratilganligi, Shavkat Mirziyoyevning olib borayotgan to‘g‘ri tashqi siyosati ham ichki rivojlanishda, ham global integratsiya yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashganligini ko‘rsatadi. Yurtimizda keyingi yillarda tashqi siyosat sohasida amalga oshirilayotgan keng miqyosli loyihalar o‘z navbatida mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashda, jahon hamjamiyati bilan mustahkam aloqalarni rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda. Shu o‘rinda O‘zbekiston tashqi siyosiy strategiyasida o‘z oldiga bir qancha muhim harakatlarni amalga oshirish rejasini qo‘ygan. Ushbu omillarni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

- Geosiyosiy o‘zgarishlarga moslashish va rivojlanish bosqichiga chiqish;
- Ko‘p vektorli diplomatiya;
- Xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish;
- Tashqi siyosatning yangi strategik yo‘nalishlarini belgilash;
- Milliy xavfsizlik va tashqi siyosat;
- Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish;
- Ochiqlik va oshkoralik, manfaatli hamkorlik siyosatini olib borish.

Aytish mumkinki, bugun O‘zbekiston tashqi siyosati va mustaqil taraqqiyoti bir bino deb olsak, u o‘z ko‘lami jihatdan yangi bir bosqichga ko‘tarildi. Albatta, bu yo‘lda nafaqat mintaqa davlatlari, xususan dunyoning ko‘pgina yirik davlatlari, xususan xorijiy mamlakatlar bilan ham do‘stona, ham turli sohalarda hamkorlikni rivojlantirib, samarali natijalarga erishib kelayotgani muhim bir qadamlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, taraqqiyot strategiyasi bosh mutaxassisi,

O.Qudratovning fikrlariga ko‘ra, O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev bugungi kunda nafaqat O‘zbekistonni, balki Markaziy Osiyoning farovonligi uchun jon kuydirayotgani, mintaqani sanoati rivojlangan, obod va dunyo bilan keng integratsiyalashgan hududga aylantirish orzusi bilan yashab, shunga monand mehnat qilayotgan yetakchi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Qisqa davr ichida O‘zbekiston xalqi mamlakatimizning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashiga asos bo‘luvchi ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Shunga monand ravishda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan islohotlar va modernizatsiya jarayoni, jumladan, qo‘shni mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash bo‘yicha siyosatni dunyo hamjamiyati e‘tirof etmoqda.[1] Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri bilan suhbatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlar, tashqi va mintaqaviy siyosati haqida batafsil so‘z yuritilgan. Yana bir muhim xususiyati shundaki, unda Yangi O‘zbekiston — demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume‘tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do‘stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi o‘zbek xalqi uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlat ekani alohida qayd qilingan.”[2] Darhaqiqat, keltirilgan fikrlar yurt rahbarining olib borayotgan siyosatlari yangi O‘zbekistonning yangi bir strategik taraqqiyot va rivojlanish bosqichiga yuksak bir debochadir. Zero, bu qadamlar bejiz emas. “Bu demokratik o‘zgarishlar esa kimlargadir yoqish, maqtanish, turli reytinglarga kirish uchun emas, balki o‘zbek xalqi, avvalambor, yosh avlodning bugungi hayoti va ertangi istiqbolini o‘ylab, milliy manfaatlarimiz yo‘lida amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, “inson huquq va erkinliklari”, “qonun ustuvorligi”, “ochiqlik va oshkoralik”, “so‘z erkinligi”, “din va e‘tiqod erkinligi”, “jamoatchilik nazorati”, “gender tenglik”, “xususiy mulk daxlsizligi”, “iqtisodiy faoliyat erkinligi” singari fundamental demokratik tushunchalar va hayotiy ko‘nikmalar hozirgi vaqtda real voqelikka aylanib borayotgani e‘tiborlidir.”[3]

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy strategiyasidagi asosiy tamoyillarni quyidagicha keltirish mumkin:

▪ **Mustaqilligimiz va suverenitetni mustahkamlash.** O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamlash va suveren qarorlar qabul qilish huquqini saqlab qolish asosiy tamoyil hisoblanadi.

▪ **Ochiq va konstruktiv siyosat.** Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyevning tashqi siyosiy strategiyasi mamlakatimizni xalqaro hamjamiyat bilan ochiq va konstruktiv muloqotga tayyor davlat sifatida ko‘rsatadi.

▪ **Ko‘p tomonlama diplomatiya(multivektor).** O‘zbekistonning turli davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga e‘tibor qaratayotgani va aloqalrni kuchaytirishga bo‘lgan harakatlarining jadallashavuda ko‘rinadi.

▪ **Mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash.** Yangi O‘zbekiston strategiyasida Markaziy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni saqlash ustuvor vazifadir. Zero, mamlakatimiz Afg‘oniston muammosi va mintaqaviy terrorizmga qarshi kurashda ham yetakchi rol o‘ynamoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashqi siyosiy yondashuvlari:

▪ **Qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlash.** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligi davrida qo‘shni davlatlar, xususan Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston va Qirg‘iziston bilan ko‘proq hamkorlik va integratsiyaga e‘tibor qaratildi. Bu, asosan, iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va suv resurslarini boshqarish bo‘yicha qo‘shma loyihalar orqali amalga oshirilmoqda.

▪ **Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya.** Yurtimizda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi bilan tashqi siyosatda ham iqtisodiy yo‘nalishga katta urg‘u berilmoqda. Bu O‘zbekistonni global bozorga chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro savdo bo‘yicha yangi shartnomalarni tuzish orqali amalga oshirilmoqda.

▪ **Global hamkorlik va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlar.** Shuningdek, ushbu strategiya yurtimizning, O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi (YEI), Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT), va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilishiga, va o‘z navbatida ushbu tashkilotlarning global xavfsizlik, barqaror rivojlanish va ijtimoiy tenglik yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatishiga e‘tibor qaratayotganidan dalolatdir.[4]

Bundan tashqari, tashqi siyosiy strategiya asosiy maqsadlari provardida, kelajak rejlarni malaga oshirish, global zamonda mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik masalalarini ham hal etishga bo‘lgan e‘tibor kuchaytirilmoqda. Afg‘onistondagi vaziyat, xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash ayniqsa muhim hamiyatga ega masala hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, mintaqadagi suv resurslari bilan bog‘liq muammolar, Orol dengizi bo‘yicha tashabbuslar, ekologik barqarorlik O‘zbekiston tashqi siyosatining ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda. Asosiy huquqiy asoslar sifatida esa, tashqi siyosat konsepsiyasi va O‘zbekiston tashqi siyosati boshqaruv islohotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Yangi O‘zbekiston iborasida haqida to‘xtalib o‘tar ekanmiz, dastavval, yangi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar, yangi iqtisodiy dunyoqarashni tushunishimiz mumkin. Shu asnoda, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda yangicha geosiyosiy nufuzini kuchaytirishga intilmoqda va o‘z oldiga qo‘ygan strategiyalar va maqsadlar orqali xalqaro maydonda barqarorlik va xavfsizlikka hissa qo‘shishga intilmoqda. Barqaror rivojlanish borasida o‘z maqsadlariga yetishishda, O‘zbekistonning tashqi siyosati barqaror rivojlanishni ta‘minlash, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni xalqaro hamkorlik orqali kuchaytirishga va rivojlantirishga qaratilgan. Bundan tashqari, O‘zbekistonning o‘z oldiga multivektor siyosat ya‘ni bir nechta davlatlar bilan bir vaqtda hamkorlik olib borish orqali o‘z iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga va geosiyosiy muvozanatni saqlashga erishayotgani diqqatga sazovordir. Xalqaro iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishga bo‘lgan harakatalar esa, yurtimizning ushbu maqsad yo‘lida ildam va jadal ketayotganini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, eksportni kengaytirish va savdo yo‘llarini rivojlantirish uchun jiddiy choralar ko‘rilmoqda, shu bilan bir qatorda, tashqi siyosatda iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, jumladan, transport va logistika, energetika va qishloq xo‘jaligi sohalaridagi loyihalar asosiy o‘rinni egallayotganini givohi bo‘lishimiz mumkin. Ayniqsa, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan O‘zbekistonning hamkorlik faoliyatini chuqurlashtirayotgani, yurtimizning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borgan islohotlari iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va xalqaro xavfsizlikka o‘zining salmoqli hissasini qo‘shayotgani bilan ifodalanadi. Ta‘kidlash joizki, Milliy xavfsizlikni ta‘minlash bilan birga, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan yaqin aloqalarni kuchaytirish va o‘zaro ishonchni mustahkamlash Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining pirovard yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu siyosat ichki barqarorlikni saqlash va xalqaro terrorizm, narkotrafik va ekstremizmga qarshi kurashda xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, bu mintaqaviy xavfsizlik, suv resurslari muammolarini hal qilish, chegaraviy nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish kabi sohalarda namoyon bo‘lmoqda. Mintaqaviy savdo-sotiqni oshirish va iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish oid olib borilayotgan islohotlar keng ko‘lamni tashkil etmoqda. Pirovardida, globalizm sharoitida global rivojlangan davlatlar bilan integratsiyalashuvni oshirishga bo‘lgan harakatalar, jumladan, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirildi. Yurtimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilina boshlandi, shuningdek, va iqtisodiyotimiz ham liberallashtirish bosqichiga ko‘tarilayotgani aytish lozim bo‘lgan dalillardir. Albatta, bularning barchasi yangi rivojlanish bosqichiga chiqayotganizmidan darak beradi. Qolaversa, amalga oshirilayotgan ichki va tashqi

siyosatdagi ijobiy o‘zgarishlar O‘zbekistonning xalqaro maydondagi mavqe‘yini ham ortishiga xizmat qilmoqda. Harakatlar strategiyasi 5 bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo‘yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Mazkur strategiyaning beshinchi bosqichi “ Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat” deb nomlanib tashqi siyosatning amalga oshirilishida muhim o‘rin tutdi.[4] Keyingi yillarda yuqoridagi dasturni izchil davom ettirish maqsadida muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni asosida “O‘zbekiston–2030” strategiyasi ishlab chiqildi .Mazkur strategiya yetti bo‘limdan iborat bo‘lib 100 ta maqsadni o‘z ichiga oladi.Ushbu strategiyaning 93-maqsadidan toki 100-maqsadiga qadar mamalakatimizning tashqi siyosat masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi. Zero, 2017-2021 yillar mobaynida davlatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi «Harakatlar strategiyasi» doirasida mamlakatimizda amalga oshirilgan salmoqli va samarali islohotlar o‘z natijasini ko‘rsatib kelayotgani, “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”ga mustahkam poydevor bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.[5]

So‘nggi yillarda takomillashayotgan tashqi siyosatga oid milliy qonunchilik hamda O‘zbekiston hukumati tomonidan belgilangan qat‘iy siyosiy pozitsiyaga muvofiq, ya‘ni boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, chegaralarning daxlsizligi, kuch ishlatmaslik, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish qoidalariga amal qilish, shuningdek hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo‘shilmaslik, boshqa davlatlarning harbiy bazalari va ob‘ektlarini mamlakat hududida joylashishiga va harbiy xizmatchilarimizning xorijdagi tinchlik o‘rnatish bilan bog‘liq operatsiyalar va harbiy mojarolarda ishtirok etishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi tamoyillarga asosan, O‘zbekistonning tashqi siyosati batamom yangi mazmun-mohiyatga ega bo‘ldi. Ma‘lumki, yurtboshimizning. “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni loyihasi “Taraqqiyot strategiyasi” markazining 2022–2026.strategy.uz hamda Hukumatning regulation.gov.uz portallarida keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgani ham ushbu siyosatning ochiq va shaffof ekanligidan dalolat beradi.[6]

Yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat “Taraqqiyot strategiyasi” va uni 2022- yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” loyihasida “ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish”ga oid bir qator strategik maqsadlar va vazifalar belgilangan.[7]

Xususan, Taraqqiyot strategiyasida:

❖ O‘zbekistonning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli sub’ekt sifatidagi rolini oshirish;

❖ Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish;

❖ An’anaviy hamkorlar bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish;

❖ BMT organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatni kuchaytirish;

❖ Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish;

❖ Jahon hamjamiyati auditoriyasida mamlakatimiz imijini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish;

❖ Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

❖ O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari tomonidan O‘zbekistonning chet ellardagi fuqarolariga xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish kabi aniq va muhim strategik maqsadlar o‘z aksini topgan.”[8]

“Inson qadrini ulug‘lash va mahalla yili”da amalga oshirilgan “Taraqqiyot strategiyasi” ning siyosiy yo‘l loyihasi ishlab chiqarilishida ochiq va pragmatik tizim faol rivojlanishi uchun qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu yo‘l xaritasida Markaziy Osiyo davlatlari, an’anaviy, xalqaro mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash nazarda tutiladi.

O‘zbekistonning barqaror yo‘nalishi bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni iqtisodiy jihatdan oliy boshqarish va hamkorlik mexanizmlaridan samarali foydalanishi, Markaziy Osiyo davlat rahbarlari bilan muntazam “Maslahat uchrashuvlar”ini tashkil etish va rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Qozog‘iston va Turkmaniston bilan chegaraoldi erkin savdosi tashkil etish va “ Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temir yo‘li loyihasini jadallashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bularning barchasi O‘zbekiston o‘z milliy taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam

qo‘yganligining yana bir isbotidir. Shu o‘rinda Prezidentimizning quyidagi tarixiy suhbatlaridagi fikrlar, ushbu islohotlar qanchalik drajada amlaga oshiralayotganining yaqqol namayon etadi:

“Barchamiz bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz kerak: tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash — fuqarolar, xalqimiz farovonligini oshirishning eng samarali yo‘li, Yangi O‘zbekistonni barpo etishning pirovard maqsadidir. Bu sohadagi mavjud kamchilik va nuqsonlarni hal etishda mamlakatimiz hayotini yanada erkinlashtirish, ochiqlik va oshkoralik muhitini, jamoatchilik nazoratini kengaytirish muhim rol o‘ynaydi, deb ishonaman.”[9]Prezident Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 33 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida , shunday deb yurtdoshlarimizga murojaat qiladilar : “Bugungi nihoyatda murakkab va tahlikali davr oldimizga yangi-yangi sinov va muammolarni ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.Lekin hayot qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin, mamlakatimizda demokratik islohotlarni izchil davom ettirib, xalqimizni rozi qilishga, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz. Qurolli Kuchlarimizni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika bilan ta‘minlash, ularning jangovar va ma‘naviy salohiyatini oshirishga bundan buyon ham ulkan e‘tibor qaratamiz. Lekin tinchlikni saqlash faqat harbiylarimizning ishi bo‘lib qolmasligi kerak. Bu barchamizning, har bir O‘zbekiston fuqarosining muqaddas burchi bo‘lishi shart. Yurtning kuchi – birlikda, qadri esa tinchlikdadir. Hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy e‘tiborni beshta ustuvor yo‘nalishga qaratmoqdamiz”[10].

Ko‘rinib turibdi yangi O‘zbekiston tashqi siyosiy strategiyasi rivojlanish asoslari, bu bevosita xalqimiz roziligi, tichlik va birdamlik bilan bog‘liqdir. AQShning Gudzon Instituti Harbiy- Siyosiy tadqiqotlar markazi direktori Richard Vays , yurtimizning tashqi siyosiy tashabbuslari nafaqat O‘zbekiston uchun balki butun Markaziy Osiyo davalatlari uchun ham keng imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda deb o‘z fikrini bayon etadi.[11]Shuningdek, Prezidentimizning, 2022-yil Oliy Majlisda qilgan murojaatnomalariga binoan, yangi O ‘zbekistonni barpo etish, ushbu davrda to‘plagan tajribalar, faqat mashaqqatli va jasoratli mehnat orqali erishiladi deya ta‘kidlagan edilar.

XULOSA (CONCLUSION)

So‘nggi yillarda O‘zbekiston yangi tashqi siyosatini jahon hamjamiyati nazarida yuqorida baholanayotganligini alohida ta‘kidlash lozim. Zero, ushbu fikr isbotini ko‘pgina ekspertlar tomonidan keltirilgan iqtiboslarda ko‘rishimiz mumkin. Xususan, pandemiya, dunyodagi chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozlar, ziddiyatlarga

qaramasdan, xalqimizning qahramonlarcha mehnati bilan erishgan ayrim yutuqlarimizni aytib o'tishni o'rinli.

Xulosa o'rnida aytganda, bugungi kunda yurtimiz O'zbekiston xalqaro tashkilotlar doirasida muntazamlik bilan dolzarb tashabbuslar va muhim siyosiy takliflarni ilgari surmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bunday sharaflı ishlarni amalga oshirayotgani butun dunyo hamjamiyatining ham alohida e'tirofiga sazovor bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.Manba. <http://www.lex.uz>

2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash bo'yicha 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni .

// www.lex.uz

3. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash bo'yicha 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni .

// www.lex.uz

4.O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash bo'yicha 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni.

// www.lex.uz

5.Mirziyoyev Sh.M.O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 33 yilliga bag'ishlangan nutqidan.O'zbekiston respublikasi Prezidenti rasmiy sayti.2024-yil, 31-avgust. <https://president.uz/oz/lists/view/751>.

6. Mirziyoyev Sh.M.O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 33 yilliga bag'ishlangan nutqidan.O'zbekiston respublikasi Prezidenti rasmiy sayti.2024-yil, 31-avgust. <https://president.uz/oz/lists/view/751>.

7. Qudratov, O. *Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari*.2024-yil. <https://azkurs.org/yangi-ozbekiston-tashqi-siyosatining-ustuvor-yonalishlari.html>

8.Hakimov F. *Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari*.2022-yil, 1-fevral. Taraqqiyot strategiyasi markazi rasmiy sayti. <https://azkurs.org/yangi-ozbekiston-tashqi-siyosatining-ustuvor-yonalishlari.html>

9.Yuldashev, G. Shavkat Mirziyoyevning Yangi O‘zbekiston gazetasiga bergani tarixiy intervyusi. Yangi O‘zbekiston.2022-yil, 23-dekabr .[Historical interview of Shavkat Mirziyoyev with Yangi O‘zbekiston newspaper]. <https://aniq.uz/yangi/sh-men-ning-oz-gazetasiga-bo'l-sana-in-toliq>

10.Qudratov, O. *Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari*.2024-yil. <https://azkurs.org/yangi-ozbekiston-tashqi-siyosatining-ustuvor-yonalishlari.html>

11. Shakambarov, A. A. (2023). MA’NAVIY MARGINALLASHUV YOSHLAR MA’NAVIYATI SHAKLLANISHIGA XAVF SOLUVCHI TAHDID SIFATIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 418-422.

12.Qudratov, O. *Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari*. Taraqqiyot strategiyasi markazi rasmiy sayti. 2024 yil. <https://azkurs.org/yangi-ozbekiston-tashqi-siyosatining-ustuvor-yonalishlari.html>